

Qurbonboyeva Ra'no Yahyo qizi

O'zMU tarix fakulteti tarix yo'nalishi 1 kurs magistratura talabasi

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqola 1925–1941-yillar oralig'ida O'zbekiston SSR hududida olib borilgan sovet ta'lim siyosatining o'ziga xos xususiyatlari, uning mafkuraviy, iqtisodiy va huquqiy negizlarini tadqiq etishga qaratilgan. Xalq ta'limi tizimini sovetlashtirish jarayonida totalitar tuzumning qat'iy sinfiy yondashuvlari ustuvor bo'lgani, jamiyatning ma'naviy qarashlarini yagona qolipga solishga yo'naltirilgan bolshevistik siyosat hamda ta'lim muassasalaridagi milliy xususiyatlarga qarshi olib borilgan kurashlar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada o'lkaning madaniy-ma'rifiy hayotiga oid jarayonlar, xususan, mustamlakachilik va sotsialistik tuzum sharoitida O'zbekiston ta'lim tizimidagi ziddiyatlar, yuzaga kelgan inqirozli holatlar va ularni bartaraf etish amaliyoti ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *xalq maorifi, ta'lim siyosati, maktab tizimi, o'qituvchi kadrlari, sovet mafkurasi, madaniy inqilob, boshlang'ich ta'lim.*

1917-yildan to 1990-yillargacha bo'lgan davr mobaynida ijtimoiy-madaniy va pedagogik jarayonlarda kommunistik mafkura mutlaq ustuvorlik qildi. Shunga qaramay, bu davrda milliy tafakkur va xalqimizning ma'rifatga intilishi baribir o'z taraqqiyotida davom etdi. Sho'ro hokimiyatining asosiy maqsadi yosh avlodni o'zining boy milliy o'tmishi, azaliy madaniyati va qadriyatlaridan ayirib, ulardagi milliy g'urur hissini so'ndirishga qaratilgan edi.

Natijada, o'quvchi yoshlar ongiga asosan kommunistik axloq qoidalarini singdirish yagona pedagogik vazifa sifatida belgilandi. Sovet davridagi tarixiy adabiyotlarda o'lka aholisi asossiz ravishda "mutlaqo savodsiz" deb baholangan va xalqimizning asrlar davomida takomillashib kelgan betakror ta'lim-tarbiya an'analari qasddan inkor etilgan. Siyosiy tuzumning chinakam qiyofasini xaspo'shlash maqsadida o'sha vaqtdagi tarixchilar o'z asarlarida ta'lim sohasidagi reallikni atayin buzib talqin qilishgan.

Bugungi kunda Vatanimiz tarixining har bir davrini ilmiy doirada xolis va obyektiv baholash davlatimiz siyosatining ajralmas qismiga aylandi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning mamlakat qudrati hamda millat buyukligi bevosita ilm-fan va ta'lim-tarbiya bilan bog'liqligi haqidagi strategik fikrlari tadqiqotlar uchun dasturilamal vazifasini o'tamoqda. Tarixga chuqurroq e'tibor qaratsak, Turkiston hududida o'ziga xos xalq maorifi sotsialistik tuzumdan ancha oldin ham uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligini ko'ramiz.

Faktlar shuni tasdiqlaydiki, Turkiston aholisining katta qismi dastlab sovet hokimiyati taklif etgan ta'lim tizimini qabul qilmadi. Chunki bu islohotlar asil mohiyatiga ko'ra milliy o'zlikni bo'g'ishga, chorizm davridagi ruslashtirish siyosatini yangicha ko'rinishda davom ettirishga xizmat qilar edi.

1930-yilning yozida o'tkazilgan VKP(b) XVI syezdida sotsializm poydevorini qurish uchun aholining madaniy-ma'rifiy darajasini oshirish, boshqacha aytganda "madaniy inqilob"ni amalga oshirish muhim omil sifatida ko'rsatildi. Ushbu anjuman qarorlari asosida butun mamlakat miqyosida savodsizlikni yo'qotish hamda umumiy majburiy boshlang'ich ta'limni joriy etishga kirishildi. Mazkur qarorlarga tayanib, O'zbekiston SSR rahbariyati 1930-yil 15-sentyabr kuni bolalar va o'smirlarni majburiy boshlang'ich ta'limga jalb etish to'g'risida maxsus hujjat qabul qildi. Oradan bir yil o'tib, 1931-yilda ta'lim tizimidagi tafovutlarni bartaraf etish, o'rta va boshlang'ich maktablar o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash maqsadida yana bir qaror tasdiqlandi. Bunga qishloq joylarida o'quvchilarning maktabda bor-yo'g'i 2-3 yil o'qib, keyinchalik yetti yillik maktablarda ta'limni davom ettira olmaslik holatlari sabab bo'lgan edi.

Sotsialistik tuzum ta'lim maskanlarida bolalarga politexnik bilimlar berish bilan bir qatorda, ularni sovet davlatiga sadoqat va internatsionalizm ruhida tarbiyalashni ko'zlagan edi. Aynan shu muddao yo'lida ming yillik an'analarga ega milliy diniy va jadid maktablari yoshlarni "xurofotga yetaklaydi" degan asossiz ayblovlar bilan tugatilib, xalqning madaniy ildizlariga bolta urildi. O'quv dargohlarida siyosiy targ'ibot kuchaytirilib, din taqiqlandi, tarix darsliklarida esa o'tmish o'zgartirib yozildi. Adabiyot darslarida e'tibor asosan rus ijodkorlarining asarlariga qaratildi, inqilobiy harakat va sotsializm tarixini o'rganish keng joriy etildi. Maktablarni qishloqlarda kolxoz va sovxozlarga, shaharlarda esa ishlab chiqarish zavodlariga biriktirish orqali o'quvchilarga kasbiy-amaliy bilimlar berishga urinildi. Ammo politexnik ta'limni qo'llashdagi jiddiy xatolar oqibatida nazariy fanlar siqib chiqarildi va dunyoviy bilimlarni o'qitish orqada qolib ketdi. Bunga darsliklarning yetishmasligi, o'quv dasturlarining mukammal emasligi hamda moddiy bazaning abgorligi ham sabab edi.

Ta'lim jarayonini adabiyotlar bilan ta'minlash ishlari keskin tanqidlarga sabab bo'lgandi. Darsliklar mafkuraviy jihatdan partiya siyosatiga moslashtirilgan bo'lib, ular yoshlarni har tomonlama yetuk emas, balki faqat oddiy "ishchi kuch" qilib tayyorlashga qaratilgan edi. Ayrim kitoblarda milliy-ozodlik g'oyalari (panislomizm, panturkizm) qoralanib, chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati ijobiy tusda tasvirlangan. Markaz sovet maktablari faoliyatini moliyalashtirishda asosan "qoldiq mablag'lar" tamoyilidan foydalangan. Xususan, 1927-yilda respublika byudjetidan maorif uchun atigi 9,3% miqdorida pul ajratilgani holda, bu ko'rsatkich RSFSR hududida ancha yuqori bo'lgan.

1925–1941-yillarda O'zbekiston SSRda oliy ta'lim tizimi sovet davlatining siyosiy va iqtisodiy manfaatlari asosida shakllantirildi. Bu davrda oliy ta'limning asosiy vazifasi sovet hokimiyatiga sodiq, malakali mutaxassislar va milliy kadrlarni tayyorlashdan iborat edi. Chunki yangi tashkil topgan respublikada sanoat, qishloq xo'jaligi, tibbiyot hamda xalq maorifi sohalarida yetuk mutaxassislar yetishmas edi. Shu sababli sovet hukumati O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini kengaytirishga alohida e'tibor qaratdi.

1920-yillarning oxiriga kelib O'zbekistonda dastlabki oliy ta'lim muassasalari faoliyat yurita boshladi. Ulardan eng muhimi 1918-yilda tashkil etilgan Turkiston xalq

universiteti negizida shakllangan O'rta Osiyo davlat universiteti edi. Mazkur universitet keyinchalik butun O'rta Osiyo hududi uchun ilmiy va pedagogik markazga aylandi. Universitetda tarix, filologiya, tabiiy fanlar, tibbiyot va texnika yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlandi.

1930-yillarda sovet hukumatining industrializatsiya siyosati natijasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun mutaxassislar tayyorlash zarurati kuchaydi. Shu sababli tor ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlari tashkil etildi. Jumladan:

pedagogika institutlari;

qishloq xo'jaligi institutlari;

tibbiyot institutlari;

sanoat va texnika bilim yurtlari ochildi.

Bu oliy o'quv yurtlari orqali o'zbek millatiga mansub mutaxassis kadrlarni tayyorlashga harakat qilindi. Sovet davlati mahalliy aholini boshqaruv tizimiga jalb qilish maqsadida "milliy kadrlar siyosati"ni amalga oshirdi. Natijada o'zbek yoshlarining oliy ta'lim olish imkoniyatlari kengaydi.

Oliy ta'lim tizimida ishchi va dehqonlar uchun maxsus tayyorlov kurslari – "rabfak"lar (ishchi fakultetlari) ham tashkil etildi. Ushbu fakultetlar oliy o'quv yurtlariga kirish uchun tayyorlov bosqichi vazifasini bajardi. Ayniqsa, kambag'al qatlam vakillari va xotin-qizlarni oliy ta'limga jalb qilish sovet siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi.

Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimi to'liq sovet mafkurasi nazoratiga bo'ysundirildi. Barcha oliy o'quv yurtlarida marksizm-leninizm fanlari majburiy tarzda o'qitildi. Professor-o'qituvchilar faoliyati kommunistik partiya tomonidan nazorat qilinar, o'quv dasturlari esa sovet mafkurasi asosida tuzilardi. Talabalardan sovet hokimiyatiga sadoqat talab qilindi.

Xulosa qilib aytganda, sovet davlati o'zining madaniy inqilob rejasini ro'yobga chiqarishda xalq maorifini asosiy tayanch nuqtasi deb bildi. Biroq, ushbu jarayonda ta'limni rivojlantirish va o'qituvchilar tayyorlash masalalari mahalliy xalqning obyektiv hayotiy ehtiyojlariga emas, aksincha, begona kommunistik aqidalarga xizmat qildirilgan edi. Ta'lim tizimi kadrlar muammosini "harbiy kommunizm" ruhida tezkor kurslar orqali hal qilishga uringani o'qitish sifatining keskin pasayib ketishiga olib keldi. Respublika miqyosida olib borilgan savodsizlikni tugatish amaliyotining zamirida esa faqatgina hukmron siyosiy tizim manfaatlarini qanoatlantirish maqsadi yotar va bu jarayonda asosan majburlash va ma'muriy bosim mexanizmlaridan foydalanilgan edi. Natijada umumta'lim maktablarining joriy etilishida ayrim ijobiy yutuqlar ko'zga tashlansada, sohaga doimiy tarzda ikkinchi darajali qarab, kam mablag' ajratilgani soha taraqqiyotini jiddiy oqsashiga sabab bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov N. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.

- 2.Usmonov Q., Sodiqov M. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent, 2018.
- 3.Rajabov Q. Sovet davrida O‘zbekiston madaniyati. – Toshkent, 2005.
- 4.Hasanov B. O‘zbekistonda xalq maorifi tarixi. – Toshkent, 1998.
- 5.Shamsutdinov R. O‘zbekiston SSR tarixi. – Toshkent, 2010.
- Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2002.